
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasida ishsiz aholi ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda ularning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

20 avgust — Tadbirkorlar kuni munosabati bilan Prezident tomonidan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkaziladi. Ushbu tadbirga munosib tayyorgarlik ko'rish va tadbirkorlarga to'qinlik qilayotgan muammolarni aniqlash, ularning yechimi yuzasidan bugun Rishton tumani hokimligi majlislar zalida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari vakillari bilan sayyor uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda tuman hokimi o'rinbosari A. Mustafoqulov viloyat savdo sanoat palatasi boshqarmasi tomondan biriktirilgan vakillar, tumandagi tadbirkorlar, mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari qatnashdi.

Uchrashuvda tadbirkorlar tomonidan dorixona qurish, muzqaymoq va salqin ichimliklar savdosi, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish shaxobchasi tashkil etish, bog'dorchilik faoliyati uchun yer maydoni ajratish, imtiyozli kredit hamda subsidiya olishga ko'maklashish masalalariga oid murojaatlar qilindi. Tadbirkorlarning tashabbuslari va loyihalarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

2022-07-23 13:50:43